

Gender tengligi tushunchasi, uning mohiyati va ilmiy tahlili

Madaminov Mirsaid Ulug'bek O'g'li¹

Annotatsiya: Ushbu maqola gender tengligi tushunchasining ilmiy asoslarini keng yoritib, tarixiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy kontekstda uning mazmunini tahlil qiladi. Gender tengligi erkaklar va ayollarning teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlaydigan tushuncha sifatida bayon etiladi. Olimlar bu tushunchani ijtimoiy taraqqiyot, oilaviy va jamoat munosabatlari, milliy an'ana va madaniy qadriyatlar bilan bog'lashgan. Maqolada gender tengligi tamoyillarini o'rganish, ularni amalga oshirish yo'lidagi ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etish zarurati va siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy tenglikka erishish muhimligi ta'kidlanadi. Gender tengligi masalalari faqatgina ayollar huquqlari bilan cheklanmay, erkaklar va ayollar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ham keng qamrab oladi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, jamiyat, oila, ijtimoiy tenglik, turmush tarzi, tarixiy-madaniy shart-sharoitlar, hayotiy ehtiyoj.

Gender tenglik (erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik) — bu oilada erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlari. Ba'zi tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, gender tengligi — bu patriarchal tizimdan arkoni ijtimoiy munosabatlarning arkoni bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

Hozirgi vaqtda siyosiy va iqtisodiy institutlarning tenglik darajasi mamlakatlar demokratiyasining ko'rsatkichi hisoblanadi va bu ma'lumotlar ko'plab xalqaro indekslarga kiritilgan. Global miqyosda erkaklar siyosatda ayollarga qaraganda ko'proq qatnashadi va lavozimlarni egallaydi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, boshqa barcha kasblar orasida ayniqsa siyosat sohasida gender tengligiga erishish juda mushkul. Shunday qilib, jinsiy tafovut bo'yicha Global hisobotga ko'ra, agar siyosiy vakillikdagi gender tengligining o'zgarish darajasi hozirgi darajada saqlanib qolsa, dunyoda gender tengligiga erishish uchun o'rtacha 95 yil, ta'lim sohasida gender tenglikka erishish uchun esa 12 yil kerak bo'ladi.

Ayollar masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlari, millat lar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy alo qada namoyon bo'ladi. Bu g'oyaning yuzaga kelishi, rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishi bilan ham bog'liqdir.

Olimlar ayollar masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamoa bo'lib yashashi uchun zarur bo'lган oila, urf-odat, mada niyat, xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlari, din, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishini il miy ifodalaganlar. Ko'pgina olimlarning evolyutsion nazariyala riga ko'ra, taraqqiyotda erkak hayotni rivojlantirish, o'zgartirish da faol ishtirok etib kelgan bo'lsa, aylol reproduktiv vazifalarni bajargan. Turmush tarzi, tarixiy-madaniy shart-sharoitlar, hayotiy ehtiyojlar insoning bioantropologik rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Davrlar osha davom ettan rivojlanish insonlar turmush tarzida mehnat taqsimoti, o'ziga xos fikrlash tarzi, kasb tanlash ko'nikmalari, muloqat o'rnatish usullarini shakllantira boradi. Gender goyasigacha o'tish evolyutsiyasi mobaynida ham quyidagi ijtimoiy-tarixiy bosqichlar bosib o'tildi. Mazkur bosqichlar to'rt tasnifiy xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardir:

¹ Andijon davlat pedagogika instituti



3. Diniy konfessional taqiq tizimi amal qilgan. Tarixiy manbalar aynan ayolni insoniyat madaniyatining asoschisi deb atasha di. Haqiqatan ham mehnatning ibtidoiy jamov tuzumida taqsim danishiga qarab erkaklar ov qiluvchilar, ayollar esa hosil Piguv chilar vazifasini bajarganlar. Faqat ayolgina yerdan to'yimet Uenm lix ildizlarini, inlardan mayda jonivorlarni, hashoratlar li chinkasini qazib olish bilan mashshul bo'lган.

Rivoyatlarda olovni kanif etganlar erkaklar timsolida uch raydi. Ayollar olovning xususiyatlarini o'rganish, uni turmush da qo'llash, uyni isitish, ovqat tayyorlash kabi zaruratlarni bajarganlari haqida hikoya qilinadi. Kiyim-kechak va oyoq kiy imlarini ham ayollar kashf etishgan". Ona urug'i davrida ayollarning mavqeyi yuqori bo'lган. Ayol aso siy ishlab chiqaruvchi kuch, ruzgorni muhofaza qiluvchi, bola tar biyalab, avlodning ko'payishini ta'minlovchi zot hisoblangan Bu esa unga urug', qabilo hayotida yetakchilik qilish imkonini bergen. Urug'-aymoqchilik davri ma'budalari ayollar timsolida tasvirlangan, qabilani boshqarish, aybdorlarni jazolash, hatto boshqa qabilalar ustiga qo'shin tortish ham ayollar ixtiyorida bo'lган. Ijtimoiy huquqiy nuqtai nazardan bu davrni ilmiy ada biyotlarda "ayol huquqi xukmron bo'lган davr deb atashadi. L. Morgan, F. Engels, G. Ploss, Ye. Teylor asarlarida ona urug'i davri (matriarxat)da ijtimoiy-huquqiy va siyosiy masalalar vollar qo'lida bo'lganiga ko'plab misollar keltiriladi. Birok ota urug'i (patriarxat) davriga o'tilishi bilan ijtimoiy-huquqiy muvozanat ayoldan erkak tomonga og'adi va erkak asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga, davlatni boshqaruvchisiga aylanadi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlari ayolni erkakka qaram qilish, uning psixologik, xo'jalik yuritish va bola ko'rish ga bo'lган ehtiyojlarini qondirish yo'lidan bordi.

Bu ijtimoiy-huquqiy mutelik ayol bilan erkakning mulkka egalik huquqining turlicha taqsimlanganida, ayolning turmush qurish, ajralish huquqlari tan olinmaganligida, sud ishlarida qatnashishi cheklanganligida va boshqalarda namoyon bo'ldi".

Ayollar va erkaklar teng huquqligi masalasi qadim zamonlardan buyon qizg'in bahslarga sabab bo'lib kelgan. Miloddan 400 yillar avval yashagan sofist Antifont o'z asarlarida barcha odamlarning tabiat tomonidan teng qilib yaratilganligi haqidagi g'oyani birinchilardan bo'lib ilgari surgan. Uning fik richa, tabiat barchani: ayolni ham, erkakni ham teng qilib yaratadi,

2. Siyosiy haq-huquqlarining cheklanishi amal qilgan. XVII asrga kelib G'arb mamlakatlarida sanoatning rivojlanishi ayollar Dan chiqib kolasida yangicha qarashni ifodaladi. Insoniyatning tabiiy Vozga olis ajralmas huquqlari haqidagi g'oyalar J.J. Russo, J. Lokk, SHL. Odobidan Monteskelarning ilmiy nazariyalarida o'z aksini topdi. Angliya va Frantsiya mamlakatlarida ayollar o'z huquq va erkinliklarini da aytil talab qilib chiqqa boshladilar. Ayrim manbalarda qayd etilishicha vraganda frantsuz revolyutsiyasining eng dastlabki kunlaridan boshlaboq uni ayollar siyosiy huquqlarini talab qilib chiqqa boshladilar. Fransiyada 1791 yili Olimpiya de Guj tomonidan ilgari surilgan va Yaxudiy qabul qilingan «Xotin-qizlar va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi yuridik jihatdan e'tirof etildi. Bu feminizm g'oyasi edi. Feminizm (fr. Feminisme, lotinchadan Femina-ayol) xotinda naf qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lishi uchun kurashi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy kurashda ishtirok etishi ma'nosini anglatadi.

3. Ma'rifiy cheklanishlar tizimi amal qilgan. Tarixda ayollarning bilim olishi o'ta murakkab hodisa bo'lib, ko'p holatlarda buni amalga oshirishning imkoniyati bo'lмаган, faqatgina XX asrning boshlaridan ayollar jahon miqyosida bilim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Temuriylar davrida ayollar savodini chiqarishga ko'p imkoniyatlar yaratilgan. Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Xonzodabegim, Gulbadanbegim kabi bilimli va ma'rifikatga chanqoq ayollar halq orasida e'zozlangan. Yurtimiz taraqqiyotiga ma'rifikatparvar ayollar doimo o'zlarining ulkan hissalarini qo'shib kelganlar.

XX asr oxiridagi falsafiy va sotsiologik tahlillar jinsiy lik tabiatini, jinslararo munosabatlar hamda xotin-qizlar masalasiga yangicha qarashni ifodaladi. Jamoaning eng dolzarb muammolari – hokimiyat, zo'ravonlik, shaxsning o'zini anglashi va ozodligi sanoatlashuvdan makoni davrda individning jinsiy mos kelishi va tegishli ijtimoiy makoni muammolari sifatida oydinlashtirildi. Falsafaning asosiy



masalalari: inson mohiyati muammosi, ma'nosи, maqsadi, inson mavjudligining makoni va vaqtı gender nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi. Genderning yangi konseptsiyasi "xotin qizlar masalasi"ga kengroq yondashib, uni jinsiy tafovutga oid muammoni maydonga ko'chirdi. Ayrim tadqi qotchilarning fikricha, ushbu siljish "ijtimoiy tarixdan" "madaniy tarixga" o'tishga mos keladi.

Nemis olimi R.Xof faqatgina xotin-qizlar masalasining tahlili bilan chegaralanib, erkaklarning muammolaridan ajralib qoldi.

Uning nazarida, genderni asosiy ilmiy kategoriya sifatida tahlil qilishga 4 ta sabab bor:

1. Ayol va erkak o'rtasidagi sababiy bog'lanish hamda odatdagi deb hisoblanadigan muayan ijtimoiy rollardan voz kechish.
2. Jinslararo munosabatlar tizimi va boshqa ichki madaniy nuqtai nazarlar o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash.
3. Erkaklar va ayollar muayan rollarni bajaradigan ijtimoiy tashkilotni tegishli hokimiyat tuzilmalari tahlilisiz anglab bo'lmasligini tan olish.
4. Turli rollarga olib keladigan farqlash jarayoni ham tahlil qilinishi lozimligiga iqror bo'lism.

Odamlarni rollarga ajratish an'anaviy tus olganligini isbotlash uchun Vanda Lyutsiya Zemyuner Italiya va Gollandiyada, ya'ni bir-biridan milliy mentaliteti bilan ajralib tu radigan mamlakatlardan ikki guruh bolalar orasida sotsiologik tadqiqot olib bordi. Bu tadqiqotda italiyalik bolalar gollandiyaliklarga qaraganda biror jinsga mansub o'yinchoqlarni ko'proq tanlashgan. Chunki italiyaliklar madaniyati nisbatan an'anaviylikka moyil edi.

Tadqiqotchi Lenora Veytsman boshchiligidagi sotsiologlar guruhi bolalar kitoblarida gender rollari qay darajada tasvirlanganligini o'rgandilar. Barcha tahlil etilgan kitoblarda jamoat ishlari bilan shug'ullanadigan ayol obrazlari qayd etilmagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sotsiologlar jins muammosiga xolis yondoshilgan kitoblar hali ham bolalar adabiyoti bozoriga kam ta'sir o'tkazayotgan ekan, degan xulosaga kelishgan. Taniqli sotsiolog olim M. Kimmelning ta'kidlashicha, bolalarga kitoblarda o'z sevimli qahramolarini gender obrazlari orqali aks ettirilishi o'z shaxsini gender madaniyati nuqtai nazardan anglashga turkti bo'ladi. Britaniyalik Jun Stetem o'z farzandlarida "erkak" va "ayol" sifatlarini yangicha uyg'unlikda tarbiyalashga harakat qilgan oilalarda tadqiqot o'tkazgan. Ular o'g'il bolalar boshqalarning tuyg'ularini yaxshiroq his etishini, mehribonroq bo'lismeni xohlar, ayni paytda qizlarda ta'lim olish va o'z-o'zini takomillashtirish uchun imkoniyatlardan faol foydalanishni rag'batlantiradi. Sofya Babayan bu haqda: "Gender ijtimoiy tushuncha. Ayol yoki erkakning benuqson timsoli berilgan, xronologik va geografik muhit rang-barangligi, milliy an'analari, etnopsixologiyasi, dini, tarixi va milliy mentaliteti va boshqalarda ifodalanadi" – deb yozadi. Uning mazmuni, sharhi va ifodasi o'z ichida ham, madaniyatlararo ham o'zgardi hamda tarixiy o'zgarishlar ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Gender mavzusidagi tushunchalar doirasiga quydagilar kiradi:

- gender identifikatsiyasi (muayan jinsga mansub shaxsga xos xulq shakllari);
- gender mafkurasi (jamiyatda gender farqlarni asoslab beradigan g'oyalar);
- gender differensiyasi (tabiiy deb topilgan jinsiy tafovutlarning ijtimoiy mazmun kasb etishi);
- gender rollari (ijtimoiy talablarni bajarish);

Asrlar davomida shakllangan va insonning faoliyat yo'nalishini belgilab beradigan ijtimoiy meyorlar turli jins vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatni izga solgan holda jamiyat a'zolari turmushini yengillashtiradi, gender muammolarini tezlikda hal etish imkoniyatini yaratadi, eng asosiysi, har bir jinsga xos vazifalarni anglash jarayoni milliy hamda madaniy qadriyatlarning o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

"Gender" tushunchasining mazmuni avvalo jinsni ijtimoiy modellashtirish yoki tashkil etishda mujassamlashgan. Ijtimoiy jins ijtimoiy amaliyat yordamida tashkil qilinadi. Jamiyatda muayan jins rollarning bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlar meyoriy tizimi vujudga keladi. Tegishli jamiyatda "erkaklarga oid" va "ayollarga oid" bo'lgan xususiyatlar borasida qat'iy qaror topgan



tasavvurlar qatori paydo bo‘ladi. Gender – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig‘indisidir. Gender – jinsning madaniy niqobi, bizning o‘z ijtimoiy hamda madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. O‘zbekistonda ham gender tenglik masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 23 avgustda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun mamlakatimizda ushbu soha rivoji uchun ayni muddao bo‘ldi.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog‘ida teng huquqlilikni kafolatlaydi. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’milanishini kafolatlaydi. Xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko‘riladi. Shaxslar ijtimoiy mavqeyi, jinsi va boshqa ijtimoiy ko‘rsatkichlaridan qat’I nazar inson huquqlaridan bir xilda foydalana olishsa, gender tengligi yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O‘RQ-562-som
2. Амирхўжаев, Ш., & Ғуломжонов, О. Р. Ў. (2021). БОЛА ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ СОҲАСИДАГИ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Scientific progress*, 1(6), 204-208.
3. Botirovich, I. B. (2023). ABOUT THE LOCATION OF THE TAIK POPULATION IN THE KOKAND KHANATE.

